



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME‘YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**BOLALAR UCHUN O‘YINCHOQLAR (O‘YINLAR) XAVFSIZLIGIGA
DOIR GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining
0354-18-sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2018



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston Respublikasining
Davlat bosh sanitariya vrachi
_____ **S. SAYDALIYEV**
4-aprel 2018-yil

**BOLALAR UCHUN O‘YINCHOQLAR (O‘YINLAR) XAVFSIZLIGIGA
DOIR GIGIYENIK TALABLAR**

O‘zbekiston Respublikasining
0354-18-sonli SanQvaM

Rasmiy nashr

Toshkent – 2018

ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

Ushbu Sanitariya qoidalarida quyidagi atamalar va ularning ta'riflari qo'llaniladi:

kimyoviy moddalarni o'z ichiga olgan o'yin to'plami (kimyoviy tajribalar uchun to'plamlarga tegishli bo'lmagan) - gips qoliplarini tayyorlash uchun to'plam; badiiy mini-ustaxonalarni jihozlash uchun to'plamlarda yetkaziladigan shishalash uchun keramik materiallar va emallar; plastifikatsiyalangan polivinilxlorid asosida (keyinchalik pechda toblanuvchi) shakllanadigan massalarni o'z ichiga olgan to'plamlar; badiiy quyish uchun to'plamlar; quyish uchun to'plamlar; fotosuratlarini chiqarish uchun to'plamlar; konstruktorlik to'plamlarida yetkaziladigan yelimlovchi modda, bo'yoqlar, laklar, suyultirgichlar va tozalagichlar (erituvchilar);

o'yin to'plami - bolalar ijodiyoti va qo'l mehnati ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan turli buyumlar, materiallar, moddalardan iborat o'yinchoq;

o'yinchoq - 18 yoshgacha bo'lgan bolaning (bolalarning) o'ynashi uchun mo'ljallangan buyum yoki material; suvda o'ynash uchun o'yinchoq - suzish paytida bola tanasining og'irligini ko'taradigan va (yoki) sayoz suvda o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinchoq (shishire olinadigan yoki shishire olinmaydigan);

stol-bosma o'yinchoq - qo'shimcha o'yin elementlaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan poligrafiya usulida tayyorlangan o'yinchoq;

yumshoq to'ldirilgan o'yinchoq - karkasli yoki karkassiz, yumshoq yuzali va to'ldirgichli o'yinchoq; model-nusxa o'yinchoq - o'lchamlari asl nusxaning haqiqiy o'lchamlariga nisbatan kichraytirish masshtabida belgilanadigan o'yinchoq;

konstruktorlik to'plami - turli o'yinchoqlarni yig'ish uchun mo'ljallangan mexanik va (yoki) elektr (elektron) tarkibiy qismlardan iborat to'plam;

o'yinchoq materiali - o'yinchoq tarkibiga kiruvchi barcha materiallar;

optik o'yinchoq - ishlash prinsipi geometrik optika qonuniyatlariga asoslangan o'yinchoq;

o'yinchoqning namunaviy namunasi - bir xil texnik hujjat, texnologik jarayon asosida, bir xil materiallardan tayyorlangan va bir xil xavfsizlik talablari qo'yiladigan, ma'lum yosh guruhiga mo'ljallangan (3 yoshgacha, 3 yosh va undan katta bolalar uchun) bir turdagi o'yinchoqlar guruhidan tanlangan o'yinchoq;

funksional o'yinchoq - kattalar foydalanadigan buyum yoki qurilmaning kichraytirilgan nusxasi bo'lib, uning vazifasi va ishlashini taqlid qiluvchi o'yinchoq;

elektr o'yinchoq - kamida bitta funksiyasi elektr energiyasi yordamida ishlaydigan o'yinchoq.

O'yinchoq sifatida qaralmaydigan va ushbu Sanitariya qoidalari tatbiq etilmaydigan buyumlar ro'yxati 1-ilovada keltirilgan.

1. QO'LLANISH SOHASI VA UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu "Bolalar o'yinchoqlari (o'yinlari) xavfsizligiga qo'yiladigan gigiyenik talablar" sanitariya qoidalari va me'yorlari O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi 2015-yil 26-avgustdagi 393-sonli, "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi 2009-yil 23-apreldagi 213-sonli, "Muvofiqlikni baholash to'g'risida"gi 2013-yil 4-oktyabrdagi 354-sonli qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'yinchoqlarni (o'yinlarni) ishlab chiqarish, olib kirish, sotish talablarini, shuningdek, ulardan foydalanishda bolalar xavfsizligini ta'minlovchi sifat nazorati qoidalarini belgilaydi.

1.2. Ushbu Sanitariya qoidalarini va me'yorlari (keyingi o'rinlarda Sanitariya qoidalarini deb yuritiladi) talablariga rioya etish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, o'yinchoqlar (o'yinlar) ishlab chiqarish, olib kirish, sotish bilan shug'ullanuvchi barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

1.3. Ushbu Sanitariya qoidalarini mazkur Sanitariya qoidalarining 1-ilovasida ko'rsatilgan, o'yinchoq sifatida qaralmaydigan buyumlarga, shuningdek yakka tartibdagi buyurtma bo'yicha tayyorlangan o'yinchoqlarga va ko'rgazma namunalariga tatbiq etilmaydi.

1.4. Mazkur Sanitariya qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari va muassasalari zimmasiga yuklanadi.

2. O'YINCHOQLAR (O'YINLAR), TARKIBIY QISMLAR VA DETALLARNING XAVFSIZLIGIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

O'yinchoq shunday ishlab chiqilishi va tayyorlanishi kerakki, u belgilangan maqsadda qo'llanilganda bolalar va ularga qarovchi shaxslarning hayoti va sog'lig'iga xavf tug'dirmasligi hamda quyidagi xavflarning oldini olishi lozim:

o'yinchoq konstruksiyasi bilan bog'liq xavflar;

qo'llaniladigan materiallar bilan bog'liq xavflar;

O'yinchoqdan foydalanishga bog'liq bo'lgan xavfni, o'yinchoqning vazifasi va asosiy xususiyatlarini o'zgartirmasdan, materialini almashtirmasdan yoki uning tuzilishini o'zgartirishda bartaraf etib bo'lmaydi.

O'yinchoqlardan foydalanish xavfi bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi lozim.

2.1. O'yinchoqlar (o'yinlar) xomashyosi, materiallari va butlovchi qismlariga qo'yiladigan talablar

O'yinchoqlar tayyorlangan materiallar toza (ifloslanmagan), yuqumli bo'lmagan va ushbu Sanitariya qoidalarining 2-ilovasida ko'rsatilgan talablarga javob berishi shart.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar o'yinchoqlarida tabiiy mo'yna, tabiiy teri, shisha, chinni, tukli rezina, karton va qog'oz, ichki g'ilofsiz 3 mm va undan kichik o'lchamdagi to'ldiruvchi donachalar, nam muhitda hajmi 5% dan ortiq kattalashadigan shaqildoqqa o'xshash o'yinchoq to'ldirgichlarini ishlatish taqiqlanadi.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar o'yinchoqlarida 1-xavflilik sinfiga mansub kimyoviy moddalarning ko'chishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'yinchoqlarda ilgari ishlatilgan materiallarni qayta ishlash natijasida olingan ikkilamchi xomashyoni qo'llash man etiladi. O'yinchoqlar ishlab chiqarish uchun faqat o'z ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

O'yinchoqlarning himoya-bezak qoplamasi nam tozalashga, so'lak va ter ta'siriga chidamli bo'lishi kerak.

2.2. O'yinchoqlar (o'yinlar) xavfsizligining asosiy talablari

Organoleptik ko'rsatkichlar

O'yinchoqlar gigiyenik xavfsizlikning organoleptik ko'rsatkichlari bo'yicha mazkur Sanitariya qoidalarining 2-ilovasida belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi shart.

Jismoniy va mexanik xususiyatlar

O'yinchoq va uning tarkibiy qismlari, shu jumladan mahkamlash detallari, o'yinchoqdan belgilangan maqsadda foydalanilganda yuzaga keladigan mexanik yuklamalarga bardosh berishi, bunda buzilmasligi va o'zining iste'mol xususiyatlarini saqlab qolishi lozim.

O'yinchoqlarning ochiq qirralari, o'tkir uchlari, qattiq qismlari, prujinalari, mahkamlash detallari, tirqishlari, burchaklari, bo'rtmalari, iplari, arqonlari va mahkamlagichlari bolani jarohatlash xavfini istisno qilishi kerak.

O'yinchoqlarda suyuq to'ldirgichning oqib chiqishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'yinchoqning harakatlanuvchi qismlari bolalarga shikast yetkazish xavfini istisno qilishi lozim. Harakatlantiruvchi mexanizmlar bola qo'li yetmaydigan joyda bo'lishi kerak.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoq va uning ajraladigan qismlari, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlariga bevosita mahkamlanadigan o'yinchoqlar yuqori nafas yo'llariga tushib ketmaydigan o'lchamda bo'lishi lozim.

Yumshoq to'ldirilgan o'yinchoqning ichida qattiq yoki o'tkir begona jismlar bo'lmasligi kerak. Yumshoq to'ldirilgan o'yinchoqning choklari pishiq bo'lishi shart.

Oziq-ovqat mahsulotlari ichida joylashgan va (yoki) chakana savdoga oziq-ovqat mahsuloti bilan birga keladigan o'yinchoq alohida o'ramga ega bo'lishi kerak. Bu o'ranning o'lchamlari bolani bo'g'ib qo'yish xavfini tug'dirmasligi lozim. Plastmassa o'yinchoqni qadoqlamasdan oziq-ovqat mahsuloti o'raining tashqi qismiga joylashtirishga ruxsat etiladi.

O'yinchoq va uning tarkibiy qismlari bolaning bo'g'ilib qolish xavfini istisno qilishi shart.

Havo o'tkazmaydigan materialdan yasalgan va bolaning boshini to'liq qoplaydigan o'yin niqoblari hamda shlemlari yetarli darajada shamollatilmaslik oqibatida bo'g'ilish xavfini bartaraf etadigan tarzda ishlab chiqilishi va tayyorlanishi lozim.

Bolaning tanasini suv yuzasida ushlab turish uchun mo'ljallangan o'yinchoq suv o'tkazmaydigan va mustahkam bo'lishi kerak.

Bola sig'adigan va u uchun yopiq makonni tashkil etadigan o'yinchoq ichkaridan oson ochiladigan chiqish teshigiga ega bo'lishi, shuningdek, shamollatish tirqishlari mavjud yuzaga ega bo'lishi shart.

Bola og'irligini ko'taradigan va minishga mo'ljallangan o'yinchoq mustahkam va barqaror bo'lishi kerak (ikki g'ildirakli velosipedlar bundan mustasno). Erkin yurish mexanizmiga yoki uzatmalar qutisining neytral holatiga ega bo'lgan mexanik yoki elektr yuritma o'yinchoqlar tormoz qurilmasiga ega bo'lishi shart.

Bola tanasining og'irligini ko'tarib yuradigan va haydash uchun mo'ljallangan, g'ildirakka harakat bevosita bolaning qo'li yoki oyog'i orqali yoxud mexanik uzatma va elektr yuritma orqali uzatiladigan o'yinchoqlarni tormoz qurilmalarisiz tayyorlashga ruxsat

etiladi. Zanjirli uzatmali o'yinchoqlar himoya qalqonlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Tayanch yuzalar sirpanishni oldini oluvchi elementlarga ega bo'lishi lozim.

Bola og'irligi tushadigan, ammo minish uchun mo'ljallanmagan o'yinchoq mustahkam va ag'darilishga chidamli bo'lishi kerak.

Otish mexanizmi yordamida chiqariladigan snaryadli o'yinchoq, shuningdek kinetik energiyaga ega bo'lgan snaryad bolaning va (yoki) unga qarovchi shaxsning jarohatlanish xavfini iloji boricha kamaytirishga mo'ljallangan bo'lishi kerak.

10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan konstruktor va modellarda kavsharlashdan foydalanish taqiqlanadi.

Isitish elementlarini o'z ichiga olgan o'yinchoq quyidagilarni ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqarilishi lozim:

tegish mumkin bo'lgan barcha yuzalarning harorati tegib ketganda kuyishga olib kelmasligi;

infraqizil nurlanishning integral oqimi intensivligi darajasi ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan gigiyenik xavfsizlik talablariga mos bo'lishi;

O'yinchoq ichidagi suyuqliklar, bug'lar yoki gazlar (agar ularni chiqarish o'yinchoqning ishlashi uchun zarur bo'lsa) chiqarilganda kuyish yoki boshqa jarohatlarga olib kelmasligi uchun yuqori harorat yoki bosimga ega bo'lmasligi kerak.

Tebranish manbayi mavjud o'yinchoqlardagi mahalliy tebranish darajasi, ovoqli o'yinchoqlardagi tovush darajasi ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan gigiyenik xavfsizlik talablariga mos bo'lishi shart.

Shiqildoq-o'yinchoqlarni va bolaning og'ziga tegib turadigan o'yinchoqlarni yuzaki bo'yash va naqsh solish man etiladi.

Stol-bosma o'yinchoqlarda matn va rasmlar asosiy fonga nisbatan aniq va kontrastli bo'lishi lozim.

Qog'oz va kartonda bo'yoqlarning dog' qoldirishi mumkin emas.

Optik o'yinchoq bolaning ko'rish qobiliyatini tuzatish bilan bog'liq xavfni iloji boricha kamaytiradigan tarzda ishlab chiqilishi va tayyorlanishi lozim.

Yorug'lik diodlaridan foydalaniladigan o'yinchoqlar bolaning ko'rish a'zolariga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi va zararli nurlanish chiqarmasligi kerak.

O'yinchoqlarda har qanday turdagi lazer nurlanish tizimlaridan foydalanish man etiladi.

Yonuvchanlik.

Yumshoq to'ldirilgan o'yinchoqlar, karnaval liboslari va karnaval o'yinchoq buyumlari (masalan, soqol, mo'ylov, parik, niqob, toj va boshqalar), shuningdek, bola ichiga kirib o'ynashi mumkin bo'lgan o'yinchoqlar yong'inga chidamli bo'lishi shart.

Kimyoviy moddalarni o'z ichiga olgan va kimyoviy tajribalar uchun to'plamlarga kirmaydigan o'yin to'plamida aralashtirilganda alanganishi yoki zararli bug'lar va gazlar hosil qilishi mumkin bo'lgan moddalar yoki reaktivlar bo'lmasligi kerak.

O'yinchoq portlash xavfiga ega bo'lmasligi yoki undan foydalanilganda portlash xavfini keltirib chiqaradigan tarkibiy qismlar (moddalar, materiallar) tutmasligi lozim.

O'yinchoq, shu jumladan kimyoviy o'yinchoqlar tarkibida quyidagi moddalar yoki reaktivlar bo'lmash kerak:

qizdirilganda yoki oksidlovchi moddalar bilan biriktirilganda reaksiya natijasida portlovchi aralashmalar hosil qila oladigan;

havo bilan yonuvchan yoki portlovchi bug' aralashmalarini hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan.

Kimyoviy xususiyatlari.

O'yinchoqdan foydalanishda kimyoviy moddalarning nafas yo'llariga, teriga, shilliq pardalarga, ko'zlarga yoki oshqozonga tushishi oqibatida sog'liqqa zarar yetkazish xavfini iloji boricha kamaytirishga erishish lozim.

O'yinchoqlardan zararli kimyoviy moddalarning migratsiya darajasi va ajralib chiqishi ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan gigiyenik xavfsizlik talablariga mos kelishi lozim.

Kimyoviy moddalarni o'z ichiga olgan, ammo kimyoviy tajribalar uchun to'plamlar toifasiga kirmaydigan kimyoviy o'yinchoqlar va o'yin to'plamlarida, agar ularning miqdori har bir modda uchun belgilangan eng yuqori chegaradan oshmasa, ma'lum miqdordagi moddalar yoki reaktivlarni qo'llashga ruxsat etiladi.

Toksikologik-gigiyenik ko'rsatkichlar.

O'yinchoqlarning gigiyenik xavfsizligiga oid toksikologik-gigiyenik ko'rsatkichlar ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada keltirilgan talablarga muvofiq bo'lishi shart.

Elektr xususiyatlari.

Elektr o'yinchoqda, shuningdek, uning biror qismida ham nominal kuchlanish 24 voltdan oshmasligi kerak.

O'yinchoqlarning elektr energiyasi manbaiga tegib turadigan yoki tegib turishi mumkin bo'lgan qismlari, shuningdek kabellar va simlar elektr toki urish xavfini bartaraf etish maqsadida izolyatsiyalangan va mexanik himoyalangan bo'lishi lozim.

Masofadan boshqariladigan, elektron va elektrotexnik o'yinchoqlarning elektrostatik, elektromagnit va elektr maydonlari kuchlanganlik darajalari ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan gigiyenik xavfsizlik talablariga mos kelishi kerak.

Uchuvchi o'yinchoqlar uchun arqonlar metall bo'lmasligi lozim.

Radiatsiyaviy xavfsizlik.

Tabiiy materiallardan tayyorlangan o'yinchoqlarning radiatsion xavfsizlik ko'rsatkichlari (tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi) ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan gigiyenik xavfsizlik talablariga mos bo'lishi shart.

Mikrobiologik ko'rsatkichlar.

O'yinchoqlarning gigiyenik xavfsizligiga oid mikrobiologik ko'rsatkichlar ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada belgilangan talablarga muvofiq bo'lishi lozim.

3. O'YINCHOQLAR (O'YINLAR) USTIDAN SANITARIYA-GIGIYENA NAZORATI

3.1. O'yinchoqlar (o'yinlar)ning umumiy xavfsizlik talablariga muvofiqligi quyidagilarni bajarish orqali ta'minlanadi:

ushbu Sanitariya qoidalariga 2-ildovada ko'rsatilgan gigiyenik xavfsizlik talablari;

o'yinchoqlar (o'yinlar) tayyorlashda texnik talablarga rioya etilishini ta'minlovchi standartlar talablari.

3.2. O'yinchoqlarni tekshirish (sinash) usullari O'zbekiston Respublikasi Milliy standartlashtirish tizimi tomonidan qabul qilingan, tekshirish (sinash) va o'lchash qoidalari hamda usullarini, shu jumladan mahsulotni sertifikatlashni qo'llash va bajarish uchun zarur bo'lgan namunalarni tanlash qoidalarini o'z ichiga olgan Standartlar ro'yxatiga kiritilgan standartlarda belgilanadi.

O'yinchoq sifatida qaralmaydigan va ushbu Sanitariya qoidalarini tatbiq etilmaydigan mahsulotlar ro'yxati

Ushbu Sanitariya qoidalarining talablari quyidagilarga nisbatan qo'llanilmaydi:
musiqasi asboblari, sport jihozlari va shunga o'xshash buyumlar, ushbu buyumlarning modellari bo'lgan o'yinchoqlar bundan mustasno;

bolalar o'yin maydonchalari uchun jihozlari;
o'yin avtomatlari (tangali yoki tangasiz);
ichki yonuv dvigatelli o'yinchoq transport vositalari;
bug' dvigatelli o'yinchoq mashinalari;
katapultalar va otish qurilmalari;

bola tomonidan rezina ip yordamida uchiriladigan uchuvchi o'yinchoqlar (masalan, raketalar va samolyotlar) katapulta sifatida qaraladi;

bayramlar va tantanali tadbirlar uchun mo'ljallangan bezak buyumlari, jumladan archa bezaklari, sun'iy archalar va ularga tegishli anjomlar, elektr girlyandalar;

kolleksiya qilish uchun masshtabli modellar, agar mahsulotda yoki uning o'rovida 18 yoshdan oshgan shaxslar uchun mo'ljallanganligi haqida ma'lumot bo'lsa;

masshtabli modellarni yig'ish uchun to'plamlar;

xalq ijodi va bezak o'yinchoqlari, shuningdek, shunga o'xshash o'yinchoqlar;

jamoat joylarida umumiy foydalanish uchun o'rnatilgan tarixiy nusxalar va boshqa professional o'yinchoqlar;

o'qotar qurollarning aniq nusxalari;

vazni 20 kg dan ortiq bo'lgan bolalarning sport bilan shug'ullanishi uchun mo'ljallangan sport anjomlari, jumladan rolikli konkilar, roliklar, skeytbordlar;

o'rindiq maksimal balandligi 435 mm dan ortiq bo'lgan velosipedlar (yer sathidan eger yuzasining yuqori qirg'og'igacha vertikal bo'ylab o'lchanganda; bunda eger gorizontol holatda, o'rindiq ustuni esa maksimal darajada chiqarilgan holatda bo'ladi);

sport yoki umumiy foydalanishdagi yo'llar va piyodalar yo'laklarida harakatlanish uchun mo'ljallangan samokatlar va boshqa harakatlanish vositalari;

umumiy foydalanishdagi yo'llar va piyodalar yo'laklarida harakatlanish uchun mo'ljallangan elektr yuritmalik transport vositalari;

suv osti jihozlari, bolalarni suzishga o'rgatish vositalari;

500 dan ortiq qismdan iborat boshqotirmalar;

suv multiqlari va to'pponchalari bundan mustasno, siqilgan gaz bilan ishlaydigan multiqlar va to'pponchalar;

uzunligi 120 santimetrdan oshadigan o'q otish kamonlari;

o'yinchoqlar uchun mo'ljallanmagan mushakbozliklar, shu jumladan pistonlar;

metall uchli nayza shaklidagi uloqtirish snaryadlari qo'llaniladigan buyumlar va o'yinlar;

24 voltdan yuqori kuchlanishda ishlaydigan va kattalar nazorati ostida o'quv jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan elektr pechlar, dazmollar yoki boshqa funksional ta'lim mahsulotlari;

maktablarda va boshqa ta'lim maqsadlarida kattalar nazorati ostida o'quv jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan o'quv vositalari, ya'ni buyumlar;

interaktiv dasturiy ta'minot va tegishli periferik qurilmalarga kirish uchun ishlatiladigan shaxsiy kompyuterlar va o'yin konsollari kabi elektron jihozlari, agar bunday elektron jihozlari yoki tegishli periferik qurilmalar bolalar tomonidan maxsus

shaxsiy kompyuterlar, klaviaturalar, joystiklar yoki rul g'ildiraklari sifatida foydalanish uchun maxsus mo'ljallanmagan bo'lsa;

dam olish va ko'ngil ochish uchun mo'ljallangan interaktiv dasturiy ta'minot, masalan, kompyuter o'yinlari va CD kabi yozib olish vositalari;

bolalar uchun lateks, rezina va silikon elastomerlardan tayyorlangan sanitariya-gigiyena buyumlari (so'rg'ichlar, tish yorg'ichlar va shu kabilar);

bolalar uchun chiroqlar;

o'yinchoqlar uchun transformatorlar;

bolalar uchun zamonaviy aksessuarlar (taqinchoqlar va shu kabilar);

himoya vositalari, jumladan, yengchalar va to'shakchalar ko'rinishidagi suvda qutqaruv vositalari (suzish ko'zoynaklari, quyoshdan himoyalovchi ko'zoynaklar va boshqa ko'zni himoya qilish vositalari, shuningdek, skeytbord uchun shlemlar).

2-ILOVA

Ushbu sanitariya qoidalariga muvofiq o'yinchoqlarning gigiyenik xavfsizligi bo'yicha talablar

1. O'yinchoqlarning gigiyenik xavfsizligi talablariga quyidagilar kiradi:
organoleptik ko'rsatkichlar (hid, maza);

fizik omillar (tovush darajasi, elektrostatik maydon kuchlanganlik darajasi, radiochastota diapazonidagi elektromagnit maydon kuchlanganlik darajasi, elektr maydon kuchlanganlik darajasi, infraqizil nurlanish integral oqimining intensivlik darajasi, mahalliy tebranish darajasi, tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi);

sanitariya-kimyoviy ko'rsatkichlar (model muhitlarga zararli kimyoviy moddalarning o'tishi, ularning ro'yxati materialning kimyoviy tarkibiga qarab aniqlanadi va o'yinchoqlardan ajralib chiqadigan zararli kimyoviy moddalarning me'yorlari);

toksikologik-gigiyenik ko'rsatkichlar (shilliq qavatlariga ta'sirlanish, zaharlilik indeksi);

mikrobiologik ko'rsatkichlar.

Agar gigiyenik xavfsizlikni tasdiqlashda o'yinchoqning nazorat qilinayotgan ko'rsatkichlaridan biriga muvofiq kelmasligi aniqlansa, u talabga javob bermaydi deb topiladi va keyingi tekshiruvlar to'xtatiladi.

2. Organoleptik ko'rsatkichlar.

tabiiy sharoitda va suvli ekstraktda o'yinchoq hidining kuchliligi 1 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlarda 1 balldan, 1 yoshdan katta bolalar uchun 2 balldan oshmasligi lozim.

3 yoshdan katta bolalar o'yinchoqlari namunasining va suvli ekstraktining hid kuchliligi 2 balldan oshmasligi kerak.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar va og'iz bo'shlig'iga tegib turadigan o'yinchoqlar 1 balldan yuqori bo'lgan ta'mga ega bo'lmasligi lozim.

3. Fizik omillar.

Ovozli o'yinchoqlar quyidagi talablarga javob berishi shart:

sport o'yinlari uchun model-o'yinchoqlardan tashqari, o'yinchoqlarning ekvivalent tovush darajasi: 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - 60 dBA dan, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - 65 dBA dan, 6 yoshdan katta bolalar uchun - 70 dBA dan oshmasligi kerak;

ochiq havoda o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinchoqlarning ekvivalent tovush darajasi, impulsli tovush chiqaradigan o'yinchoqlardan tashqari, 75 dBA dan oshmasligi lozim;

o'yinchoqlarning maksimal tovush darajasi: 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - 70 dBA dan, 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - 75 dBA dan, 6 yoshdan katta bolalar uchun - 80 dBA dan oshmasligi kerak;

ochiq havoda o'ynash uchun mo'ljallangan o'yinchoqlarning maksimal tovush darajasi 85 dBA dan oshmasligi lozim;

impulsli tovush chiqaradigan o'yinchoqlarning maksimal tovush darajasi 90 dBA dan oshmasligi kerak;

o'yinchoqlar sirtidagi elektrostatik maydon kuchlanganlik darajasi 15 kV/m dan oshmasligi lozim;

radioboshqariladigan, elektron va elektrotexnik o'yinchoqlar chiqaradigan elektromagnit maydon kuchlanganlik darajasi quyidagi chastota oraliqlarida belgilangan qiymatlardan oshmasligi kerak: 0,3-300 kGs oralig'ida 25 V/m dan, 0,3-3 MGs oralig'ida 15 V/m dan, 3-30 MGs oralig'ida 10 V/m dan, 30-300 MGs oralig'ida 3 V/m dan, 0,3-300 GGs oralig'ida 10 mkVt/sm² dan;

o'yinchoq hosil qiladigan sanoat chastotali (50 Gs) tok elektr maydonining kuchlanganlik darajasi 0,5 kV/m dan oshmasligi zarur;

infraqizil nurlanish integral oqimining intensivlik darajasi 100 Vt/m² dan yuqori bo'lmasligi kerak;

tebranish manbai mavjud o'yinchoqlardagi mahalliy tebranish darajalari oktava polosalarining o'rtacha geometrik chastotasi 8 Gs va 16 Gs bo'lganda 63 dB dan, 31,5 Gs da 69 dB dan, 63 Gs da 75 dB dan, 125 Gs da 81 dB dan, 250 Gs da 87 dB dan, 500 Gs da 93 dB dan, 1000 Gs da 99 dB dan oshmasligi lozim. Tebranish tezlanishining tuzatilgan darajasi 66 dB dan yuqori bo'lmasligi kerak;

o'yinlar va bolalar ijodiyoti uchun to'plamlar tarkibiga kiruvchi tabiiy materiallar hamda ulardan tayyorlangan buyumlardagi tabiiy radionuklidlarning solishtirma samarali faolligi 370 Bk/kg dan oshmasligi shart.

4. Sanitariya-kimyoviy ko'rsatkichlar.

O'yinchoqlardan model muhitiga (suv, havo) zararli kimyoviy moddalarning o'tish darajasi 1-jadvalda keltirilgan me'yorlardan oshmasligi lozim.

1-jadval

O'yinchoqlarga qo'yiladigan sanitariya-kimyoviy talablar

Materiallar va buyumlar nomi	Aniqlanadigan zararli moddaning nomi	Migratsiyaning ruxsat etilgan darajalari:	
		model muhiti (mg/dm ³), ko'pi bilan	havo muhiti (mg/m ³), ko'pi bilan
Akrilonitril-butadiyenstiroil plastmassalari	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	

	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003
	stirol	0,01 (suvli)	0,002
Polistirol va stirol sopolimerlari	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	stirol	0,01 (suvli)	0,002
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Poliolefinlar asosidagi materiallar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	

	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Vinilatsetat asosidagi polimerlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Polivinilxloridlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	

	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	dibutilftalat	ruxsat etilmaydi	ruxsat etilmaydi
	rux	1,0 (suvli)	-
	qalay	2,0 (suvli)	-
Poliuretanlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003
Poliamidlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	

	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
Poliakrilat	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (o'yinchoqning 1 kg har qanday materiali)	
Poliefirlar asosidagi materiallar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
	qo'rg'oshin	90	

Tereftal kislotasi asosidagi polietilentereftalat va sopolimerlar	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Polikarbonat	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
Fenoplastlar va aminoplastlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	

	kadmiy	50 (1 kg shakllanadigan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanadigan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanadigan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Epoksid smolasi asosidagi polimer materiallar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Parafinlar va mumlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	

	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Rezina-lateks kompozitsiyalari	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
Silikonlar	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	xrom	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakllanuvchan massa)	

	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Qog'oz, karton	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiali)	
	kadmiy	50 (1 kg shakllanuvchan massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Yog'och	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>
Sopol, shisha	alyuminiy	0,5 (suvli)	-

	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
Sun'iy mo'yna va to'qimachilik	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	kadmiy	50 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	xrom	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	margimush	25	
	bariy	250 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	bariy	1000 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	formaldegid	50 mkg/g (suvli)	0,003 <*>
Bo'yoqlar, qalamlar, flomasterlar, guash, plastilin va boshqa	qo'rg'oshin	90	
	simob	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	simob	60 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	

shunga o'xshash mahsulotlar	kadmiy	50 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	kadmiy	75 (1 kg har qanday o'yinchoq materiallari)	
	xrom	25 (1 kg shakl beruvchi massa)	
	xrom	60 (o'yinchoqning 1 kg har qanday materiallari uchun)	
	mishyak	25	
	bariy	250 (1 kg qoliplanadigan massa uchun)	
	bariy	1000 (o'yinchoqning 1 kg har qanday materiallari uchun)	
	formaldegid	0,1 (suvli)	0,003 <*>

* Me'yor atrofdagi havoning fon ifloslanishini hisobga olmagan holda keltirilgan.

** Ko'rsatilgan zararli moddalarni aniqlashning quyi chegarasiga mos keladigan qiymatlardan ortiq miqdorda ruxsat etilmaydi. Bu sanitariya-kimyoviy ko'rsatkichlarni nazorat qilish uchun qo'llashga ruxsat etilgan o'lchash usullari bo'yicha aniqlanadi.

*** Ko'rsatkichlar o'zaro almashtirilishi mumkin.

Izoh

1. Sanitariya-kimyoviy tadqiqotlar o'tkazishda majburiy model muhiti distillangan suv hisoblanadi.
2. 3 yoshdan katta bolalar uchun mo'ljallangan yumshoq va yog'och o'yinchoqlar, qo'g'irchoq kiyimlari, bolani ko'chirish uchun mo'ljallangan va bolani sig'diradigan yoki ko'tarib yuradigan katta o'lchamli o'yinchoqlardan zararli kimyoviy moddalarning havo model muhitiga o'tishi aniqlanadi.

Qoliplanadigan massalar va bo'yoqlardan tashqari, o'yinchoq materiallarining 1 kg tarkibida, shuningdek, barmoqlar bilan qo'llaniladigan 1 kg qoliplanadigan massalar va bo'yoqlarda model muhitiga (xlorid kislotaga) ajralib chiqadigan zararli kimyoviy moddalar miqdori 2-jadvalda ko'rsatilgan me'yorlardan oshmasligi kerak.

**O‘yinchoq materiallaridan model muhitiga ajralib chiqadigan
zararli kimyoviy moddalar ko‘rsatkichlari**

Aniqlanadigan zararli kimyoviy modda nomi	Ruxsat etilgan migratsiya darajalari:	
	qoliplanadigan massalar va bo‘yoqlardan tashqari har qanday o‘yinchoq materiallarining 1 kg uchun, mg	barmoqlar bilan surtiladigan 1 kg qoliplanadigan massalar va bo‘yoqlar uchun, mg
bariy	1000	250
kadmiy	75	50
mishyak	25	25
simob	60	25
qo‘rg‘oshin	90	90
xrom	60	25

5. Toksikologik-gigiyenik ko‘rsatkichlar

3 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar, shuningdek bolaning og‘iz bo‘shlig‘i bilan funksional aloqada bo‘ladigan o‘yinchoqlar shilliq qavatlarga ta’sir qilmasligi kerak.

O‘yinchoqlar teriga mahalliy ta’sir ko‘rsatmasligi yoki suvli muhitda (distillangan suvda) aniqlanadigan o‘yinchoqlarning zaharlilik indeksi 70 dan 120% gacha, havo muhitida esa 80 dan 120% gacha bo‘lishi lozim.

6. Mikrobiologik ko‘rsatkichlar

O‘yinchoqlarning mikrobiologik ko‘rsatkichlari 3-jadvalda ko‘rsatilganlarga muvofiq bo‘lishi kerak.

O‘yinchoqlarning mikrobiologik xavfsizlik ko‘rsatkichlari

O‘yinchoqlar nomi	Mezofil aerob va fakultativ anaerob bakteriyalar (MAFAnM), KHB 1 g (sm ² , sm ³) o‘yinchoqlar da	1 g (sm ² , sm ³) o‘yinchoqdagi achitqi, achitqiga o‘xshash, mog‘or zamburug‘lari	Enterobacteriaceae oilasiga mansub bakteriyalar, 1 g (sm ² , sm ³) o‘yinchoqda	Patogen stafilokokklar, 1 g (sm ² , sm ³) o‘yinchoqda	Pseudomonas aeruginosa, 1 g (sm ² , sm ³) o‘yinchoqda
1 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun to‘ldirgichli o‘yinchoqlar, shakllantiruvchi massalar va barmoqlar bilan surtiladigan bo‘yoqlar	1*10 ² dan ko‘p bo‘lmasligi	yo‘qligi	yo‘qligi	yo‘qligi	yo‘qligi